

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



ABU HILOL AL-ASKARIYNING *الفروق اللغوية* "AL-FURŪQ AL-LUGHAVIYYAH"
ASARINING STRUKTUR VA SEMANTIK TAHLILI

Azizjon Muxammadjonov

Arabshunoslik oliy maktabi doktranti,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Arab tili, lug'at, lug'at uslubi, metodologiya, Abu Hilol Askariy, "Al-Furūq al-lughaviyyah" struktur- semantik tahlil, sinonimlar.

Annotatsiya: Annotatsiya. Lug'at — so'zlarni ma'lum bir tartib asosida joylashtirgan ro'yxat bo'lib, unda so'zlarning haqiqiy va majoziy ma'nolari, shuningdek, ularning turli kontekstlarda ishlatilishi leksik va semantik jihatdan izohlanadi. Til o'rganuvchilari uchun lug'at zaruriy leksikografik vosita hisoblanadi, chunki kishining leksik boyligini kengaytirish uning madaniy va ijtimoiy doirasi bilan uzviy bog'liq. Abu Hilol al-Askarining "al-Furūq al-Lughaviyyah" lug'ati sinonimik birliklar o'rtasidagi nozik semantik farqlarni tahlil qilishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu lug'at arab tilidagi noaniq va ko'p ma'noli so'zlarni aniqlash, ularning sinonimik variantlarini tahlil qilishda, shuningdek, maqbul leksik birikmalarni tanlashda yordam beradi.

Mazkur ilmiy maqola Abu Hilol al-Askarining "al-Furūq al-Lughaviyyah" asarida qo'llanilgan metodologik asoslarni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda lug'atning tuzilishi, semantik izohlar tizimi va ma'nolarni tasniflash usullari leksikologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Lug'at tarjima jarayonida, ilmiy tadqiqotlarda, qadimiy arab matnlarini o'rganishda, shuningdek, terminologiyani rivojlantirishda muhim leksikografik vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada lug'atning paydo bo'lish tarixi, mazmuni, leksik uslubi va asosiy maqsadlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, lug'atning afzalliklari, imkoniyatlari va ayrim kamchiliklari ham lingvistik jihatdan sharhlangan.

STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF ABU HILOL AL-ASKARI'S WORK الفروق اللغوية "AL-FURŪQ AL-LUGHAVIYYAH"

Azizjon Mukhammadjonov

Doctoral student at the Higher School of Arab Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies,
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT THE ARTICLE

Keywords: Arabic language, lexicography, linguistic style, methodology, Abu Hilol Al-Askari, Al-Furūq al-Lughawiyyah, structural-semantic analysis, synonyms.

Annotation. A dictionary is a list of words arranged in a specific order, providing explanations of their literal and figurative meanings, as well as their usage in various contexts from a lexical and semantic perspective. For language learners, the use of a dictionary is an essential lexicographical tool, as expanding one's lexical repertoire is closely tied to their cultural and social environment. Abu Hilal al-'Askari's "al-Furūq al-Lughawiyyah" serves as a significant scholarly resource in analyzing the subtle semantic differences between synonymous units. This dictionary aids in identifying ambiguous and polysemous words in the Arabic language, analyzing their synonymous variants, and selecting appropriate lexical combinations.

This scholarly article is dedicated to analyzing the methodological foundations employed in Abu Hilal al-'Askari's work "al-Furūq al-Lughawiyyah." It examines the structure of the dictionary, the system of semantic explanations, and the methods of classification of meanings from a lexicological perspective. The dictionary serves as an important lexicographical tool in translation processes, academic research, the study of ancient Arabic texts, and the development of terminology. The article provides a detailed account of the history of the dictionary's creation, its content, lexical style, and main objectives. Additionally, the advantages, potential uses, and some shortcomings of the dictionary are also discussed from a linguistic point of view.

СТРУКТУРНЫЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ ХИЛОЛА АЛ-АСКАРИ الفروق اللغوية "AL-FURŪQ AL-LUGHAVIYYAH"

Азизжон Мухаммаджонов

Докторант Высшей школы арабоведения,
Ташкентский государственный университет востоковедения,
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, лексикография, языковой стиль, методология, Абу Хилол Аскари, *Al-Furūq al-Lughawīyah*, структурно-семантический анализ, синонимы.

Аннотация. Словарь — это список слов, расположенных в определённом порядке, в котором объясняются их буквальные и переносные значения, а также использование в различных контекстах с лексической и семантической точки зрения. Для изучающих язык использование словаря является необходимым лексикографическим инструментом, так как расширение лексического запаса человека тесно связано с его культурной и социальной средой. Словарь "аль-Фурук аль-Лугауийя" Абу Хилала аль-Аскари служит важным научным источником для анализа тонких семантических различий между синонимическими единицами. Этот словарь помогает идентифицировать неясные и многозначные слова в арабском языке, анализировать их синонимические варианты, а также выбирать допустимые лексические сочетания.

Данная научная статья посвящена анализу методологических основ, применённых в труде Абу Хилала аль-Аскари "аль-Фурук аль-Лугауийя". В статье рассматривается структура словаря, система семантических объяснений и методы классификации значений с лексикологической точки зрения. Словарь служит важным лексикографическим инструментом в процессе перевода, научных исследований, изучения древних арабских текстов, а также в развитии терминологии. В статье подробно описаны история создания словаря, его содержание, лексический стиль и основные цели. Также с лингвистической точки зрения рассматриваются достоинства, возможности и некоторые недостатки словаря.

KIRISH.

Bugungi kunda arab tilidagi lugʻatlar zamonaviy ilmiy tashkilotlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy terminlar bilan boyitilishi lozim. Bu zamonaviy arab uygʻonishiga yordam beradi, chet adabiyotlarini arab tiliga tarjima qilishni yengillashtiradi hamda turli fanlarni arab tilida oʻqitishni osonlashtiradi¹. Qayd etish joizki, arablar lugʻat tuzishda birinchi boʻlmaganlar; ulardan oldin osuriylar, xitoylar va yunonlar bu sohada yutuqlarga erishishgan. Osuriylar oʻz tillarining yoʻqolib ketishidan qoʻrqib, maxsus tartibli lugʻatlar tuzishgan.² Arablar esa lugʻatni Qurʻondagi الغريب "noaniq" soʻzlarini izohlash maqsadida tuza boshlagan. Qurʻonni izohlashda, ayniqsa, الغريب "noaniq" soʻzlarni tushuntirishda (Abdulloh ibn Abbos 687.v) birinchi boʻlib shugʻullangan.³

Bugungi kunda lugʻatlar turli shakllarda mavjud⁴:

عدنان الخطيب، . المعجم العربي بين الماضي والحاضر الطبعة الثاني. (لبنان مكتبة لبنان. 1414هـ. 1994م.) ص159

عبد الحميد أبو سكين . المعاجم العربية مدارسها ومناهجها. الطبعة الأولى (جامعة الأزهر. 1993) ص. 10

إبراهيم بن مراد . المعجم العلمي العربي المختص. الطبعة الأولى (بيروت - لبنان: دار الغرب الإسلامي 1994). ص 19

عبد الله محمد النقراط، الشامل في اللغة العربية. ص 129

1. **Ma'nolar lug'ati (معجم المعاني)** Bu lug'atning asosiy xususiyati shundaki, unda so'zlar ularning ma'nolariga ko'ra tartiblangan. Ya'ni, ma'nolar lug'atida foydalanuvchi so'zlarning shakli yoki alifbo tartibi bilan emas, balki so'zning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan mavzular yoki tasniflar asosida qidirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'noga asoslangan: Bu lug'at so'zlarning semantik maydonini o'rganishda juda foydali bo'ladi, chunki u so'zlar ma'nosiga qarab tasniflanadi. Misol uchun, biror bir mavzu (masalan, "sevinch" yoki "g'am") asosida turli so'zlarni topish mumkin. Ilmiy va adabiy izlanishlar: tadqiqotchilar ma'nolar lug'atini so'z ma'nolari, sinonimlar va terminlar orasidagi farqlarni o'rganishda keng qo'llashadi. Tarixiy ma'nolarni aniqlash: ushbu lug'atlar odatda so'zlarning birlamchi va ikkilamchi ma'nolarini ajratib ko'rsatadi va tarixiy rivojlanishini yoritib beradi. Arab tilida "عاطفة" so'zi turli ma'nolarni anglatishi mumkin. Ma'nolar lug'atida ushbu so'zning "sevgini ifodalovchi" yoki "achinish hissi" degan ma'nolarini topish mumkin.

2. **So'zlar lug'ati (معجم الألفاظ)**. Bu lug'at so'zlarni alifbo tartibida joylashtiradi, ya'ni foydalanuvchi biror bir so'zning to'g'ri yozilishi yoki uning talaffuzini qidirganda ushbu turdagi lug'atdan foydalanadi. **Alifbo tartibi**: so'zlar o'zining birinchi harfi asosida joylashtiriladi, bu esa foydalanuvchi uchun kerakli so'zni tezda topishga yordam beradi. **Grammatika va fonetika**: ushbu lug'atlar ko'pincha so'zlarning fonetik va grammatik xususiyatlarini, talaffuz qoidalarini ko'rsatadi. **Asosiy ma'lumot**: foydalanuvchi so'zning ma'nosi, qaysi qatorda yoki jumlada qanday ishlatilishi haqida ma'lumot oladi. Arab tilidagi "قلم" so'zini qidirayotgan bo'lsangiz, so'zlar lug'atida ushbu so'zning talaffuzi, grammatik holati va uning turli ma'nolari haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Ma'nolar lug'ati so'zlarni ma'nosiga qarab guruhlaydi, so'zlar lug'ati esa so'zlarni alifbo tartibida keltiradi. Ma'nolar lug'ati semantik izlanishlar, sinonimlarni topish va bir mavzu asosida so'zlarni qidirish uchun ishlatiladi. So'zlar lug'ati esa so'zning to'g'ri yozilishi va grammatik ma'nosini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ma'nolar lug'ati ilmiy izlanishlar uchun qo'llaniladi. So'zlar lug'ati esa kundalik nutq yoki yozuv uchun zarur bo'lgan so'zlarni topishda ishlatiladi. Arab tili va adabiyoti sohasida bu ikki turdagi lug'atlar bir-birini to'ldiruvchi vosita bo'lib, ilmiy izlanishlar va til o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Abu Hilol Askariy

Abu Hilol Askariy to'liq ismi al-Hasan ibn Abdulloh ibn Sahl ibn Said ibn Yahyo ibn Mehron bo'lib, u adabiyot va fiqh ilmi bilan mashhur bo'lgan. Manbalarga ko'ra, u Abu Ahmad Askariyning jiyani bo'lgan va undan ta'lim olgan. Ikkalasi ham ona shahri Ahsar Muqarramdan bo'lgan (Ahvoz yaqinidagi hudud). Abu Hilol ilm va odob bilan tanilgan, lekin uning tug'ilgan sanasi noma'lum. Yaqut al-Hamaviyning so'zlariga ko'ra, Abu Hilolning vafoti haqida hech qanday ma'lumot mavjud emas, faqat uning (الاولئ) "Avvalgilar" nomli kitobining oxirida 395-hijriy yil 10-sha'bon kuni kitobni tugatgani qayd etilgan,⁵bu asar adibning so'ngi asari ekanligini hisobga olsak u 1005-yilda vafot etganini taxmin qilishimiz mumkin.

الفروق اللغوية “Al-Furūq al-lughawīyyah” asari

Mashhur olmon sharqshunosi Karl Brockelmann o'zining mashhur "Geschichte der arabischen Litteratur" asarida Abu Hilol al-Askari tomonidan yozilgan "al-Furūq al-

⁵ أبو هلال العسكري. الفروق اللغوية (القاهرة دار العلم و الثقافة). ص. 10.

Lughawiyyah" risolasini tilga oladi va bu asar ilk bor 1935-yilda Qohirada nashr etilganini qayd etadi.⁶ Ushbu asar 30 bobdan iborat bo'lib, unda arab tilidagi so'zlar va iboralar o'rtasidagi nozik farqlarni tushuntiruvchi lingvistik nazariyalar bayon etilgan. Abu Hilol al-'Askari o'zining leksik tadqiqotlarida so'zlarning semantik nozikliklarini ajratish va izohlash uchun sakkizta asosiy mezonni keltiradi. Bu mezonlar fonetik, morfologik, sintaktik, pragmatik, semantik jihatlarni qamrab oladi hamda sinonimlarning qo'llanilishidagi farqlarni aniqlashga yo'naltirilgan. Shu tariqa, Abu Hilol so'zlarning ma'no doirasi, ularning konnotatsiyalari, uslubiy xususiyatlari va leksik-semantik tuzilmasidagi o'zgarishlarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadi.

1. Uslubi

Asar o'z uslubida ma'lumotni aniq va lo'nda tarzda yetkazib, ortiqcha cho'zilish va qisqartirishlardan qochadi. Matnni o'rta darajada saqlash maqsadida kam ishlatiladigan va murakkab so'zlardan foydalanilmaydi. Chunki eng maqbul uslub muvozanatni saqlashdir.

2. Mavzular ko'lami

Abu Hilol Askariy o'zining "al-Furūq al-lughawiyyah" asarida ikki asosiy yo'nalishni qamrab olgan:

- Qur'oni karim va hadislarida uchraydigan so'zlar, shuningdek, fiqh va mutakallimlar istilohlarida ishlatiladigan leksik birliklar.
- Kundalik suhbatlarda qo'llaniladigan so'zlar.

3. Ushbu tadqiqotning ("al-Furūq al-lughawiyyah") maqsadi

Tadqiqotning bosh maqsadi — so'zlar faqat bir ma'noga ega degan fikrni rad etishdir. Bu borada Rog'ib Isfahoniyni "Mufradot"⁷ asari yuksak baholanadi, chunki u Qur'ondagi so'zlarning maxsus ma'nolarini aniqlashda benazir tadqiqot olib borgan.

4. Lug'atning tuzilishi

Lug'at so'zlar o'rtasidagi nozik farqlarni yoritish uchun ularni boblarga bo'lib tartiblaydi.

5. Muqova

Lug'atning muqovasida asarning nomi, muallifning ismi va muhaqqiqning ismi joylashtirilgan. Muqova ko'k va yashil ranglarda bezatilgan, muallif "Abu Hilol Askariy"ning ismi oq va qizil ranglarda, asar nomi sariq va qizil ranglarda, muhaqqiqning ismi esa qora rangda yozilgan.

6. Mundarija

Mundarijada lug'atning ichki tuzilishi ko'rsatilgan. U bag'ishlov, arab tiliga kirish, muhaqqiqning so'zlari, shuningdek, quyidagi masalalarni qamrab olgan:

- Muallif va uning asarlari.
- "Lug'aviy farqlar" kitobi va Abu Hilol Askariyning boshqa asarlari.
- Kitobning qo'lyozmalari va qisqartmalari.

⁶ أبو هلال العسكري. لمرجع السابق ص. 10

⁷ "راغب الإصفهاني" مفردات ألفاظ القرآن (دار النشر القاهرة) 1938

- Sinonimlar va ularning ilmiy tahlili. Muallifning kirish soʻzida lugʻat boʻlimlari tartiblab berilgan.

7. Boʻlimlar tartibi

Abu Hilol Askariy lugʻatni soʻzlarning maʼnolari va mavzulariga qarab tartiblagan. Masalan, "Oʻsimliklar" boʻlimida barcha oʻsimliklar va u bilan bogʻliq atamalar keltirilgan. "Ranglar" boʻlimida ranglar turli darajalarda bayon etilgan. Bu bizga sinonimlar orasidagi nozik farqlarni aniqlash va aniq ifoda uchun mos soʻzlarni tanlash imkonini beradi. Shunday qilib, har bir boʻlim mavzular boʻyicha davom etadi.

Abu Hilol Askariyning lugʻati arab tilidagi soʻzlarni maʼnolari va mavzulari boʻyicha tasniflaydi, alifbo tartibida emas. Bu lugʻat bir yoki bir nechta maʼnolarni ifodalash uchun soʻzlarni topishda, shuningdek, tarjima va ilmiy tadqiqotlarda, qadimiy arab matnlarini tahlil qilishda, shuningdek, fan va sanʼat terminologiyasini izlashda foydali vosita boʻlib xizmat qiladi. Har bir boʻlim soʻzlar, nomlar, laqablar va sifatlar orasidagi nozik farqlarni aniqlash uchun mavzularga qarab joylashtirilgan.

Soʻzlar tartibi

Soʻzlar Abu Hilol al-Askariyning "al-Furūq al-lughawīyyah" mavzuga muvofiq tartiblangan, bu yerda bir soʻz yoki birinchi soʻzdan keyingisi mavzuga bogʻliq. Bu lugʻatning tartibi toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz yoki uning maʼnosini izlayotgan tadqiqotchi uchun qulay. Misol tariqasida, bu turdagi farqlar "soʻz"ga oid boʻlishi mumkin. Soʻzlarning tartibi quyidagicha: "ism va tasmiya oʻrtasidagi farq" - "ism va sifat oʻrtasidagi farq" - "sifat va naʼt oʻrtasidagi farq". "Sifat va hol oʻrtasidagi farq" - "vasf va sifat oʻrtasidagi farq"... va hokazo.

Abu Hilol al-Askariy oʻz lugʻatida arab tilidagi soʻzlarning maʼnolarini kiritishga katta eʼtibor qaratgan. Misol uchun: "ism va tasmiya oʻrtasidagi farq" va "ism va laqab oʻrtasidagi farq". Ibn Sirajning soʻzlariga koʻra, ism: "bir maʼnoga ega boʻlgan soʻzdir, shaxsga yoki boshqa narsaga ishora qiladi". Abu al-Hasan Ali ibn Isrohnining taʼkidlashicha, "ism sohibini koʻrsatish uchun belgi boʻlib xizmat qiladi". Abu al-Alo al-Maziniy esa shunday deydi⁸: "Ism maʼlum bir narsani ifoda etuvchi soʻzdir va u vaqt bilan bogʻliq emas, holbuki, feʼl vaqt talab qiladi yoki vaqtni belgilaydi".

Bu yondashuv oʻquvchilarga soʻzning maʼnosini yaxshiroq tushunishga va arab tilidagi lugʻat boyligini kengaytirishga yordam beradi.

Matn boshlanishi

Abu Hilol al-Askariy lugʻatining ayrim boʻlimlari mavzularni ajratib koʻrsatish orqali tartibga solingan. Abu Hilol boʻlimlarni mazmunidan kelib chiqib, ketma-ketlikda joylashtirgan. Misol uchun, "yuborish va yetkazib berish", "nabi va rasul oʻrtasidagi farq" kabi mavzular quyidagi tartibda keltirilgan: "yuborish va yetkazib berish oʻrtasidagi farq" (الإرسال والتبليغ *al-irsāl wa-tablīgh*), "koʻtarish va yetkazib berish oʻrtasidagi farq" (الرفع والتبليغ *ar-rafʿ wa-tablīgh*), "koʻtarilish va yuborilish oʻrtasidagi farq" (الرفع والإرسال *ar-rafʿ wa-l-irsāl*), "koʻtarilish va qayta tirilish oʻrtasidagi farq" (الرفع والبعث *ar-rafʿ wa-l-baʿth*), "rasul va nabi oʻrtasidagi farq" (الرسول *ar-rasūl*).

⁸ أبو العلاء المعري "رسالة الغفران" (دار المعارف القاهرة). 1934

والنبي *ar-rasūl wa-n-nabī*), "yuboruvchi va rasul o'rtasidagi farq" (*المرسل والرسول al-mursal wa-r-rasūl*).

Ushbu lug'atning o'ziga xos jihati shundaki, so'zlar ma'no jihatidan tartiblangan. Bu uning "ma'noli lug'at" deb atalishiga sabab bo'ladi, chunki har bir so'zning ma'nosi izchil tushuntiriladi va izohlanadi. Bu yondashuv lug'atni chuqur o'rganayotgan o'quvchilarga arab tilidagi so'zlar va ularning nozik ma'nolarini yanada kengroq tushunishga yordam beradi.

Misol uchun, *الإرسال (al-irsāl)* — "yuborish", *التبليغ (at-tablīgh)* — "yetkazib berish", *الرسول (ar-rasūl)* — "payg'ambar" va *النبي (an-nabī)* — "payg'ambar" so'zlari orasidagi nozik farqlar izohlanadi va ular o'quvchilarga aniq tushuntiriladi.

Ma'no yoki ta'rifning belgilanishi

Abu Hilol Askariy o'z lug'atida so'zlarning ma'nolarini arab tilining yuksak uslubida belgilashga katta e'tibor bergan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yondashuv o'quvchilarga so'z ma'nosini aniqroq tushunishga yordam beradi va arab tilidagi lug'aviy boylikni oshiradi. Misol uchun, "haqiqat" va "haqlik" so'zlari arab tilida quyidagicha ta'riflanadi:

الحقيقة (al-haqīqah) - Haqiqat til qoidalariga muvofiq aytilgan, yaxshi yoki yomon ma'noga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa.

الحق (al-haqq) - Haqlik esa faqat yaxshi ma'noda bo'ladi va u donolik asosida to'g'ri joylashtirilgan bo'ladi.

Ushbu yondashuv orqali Abu Hilol al-Askariy arab tilidagi so'zlarning nozik ma'nolarini aniqlash va ularni aniq ta'riflashga intilgan. Shu sababli, lug'at nafaqat til o'rganuvchilar uchun, balki ilmiy izlanish olib borayotganlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Bu ta'riflar qisqa va tushunarli jumlar bilan izohlanadi, keyin esa arab tilidagi ma'nolar Qur'on oyatlari, she'rlar yoki olimlarning so'zlari bilan mustahkamlanadi. Bu uslub, nafaqat arab tilida gapiradiganlar uchun, balki bu tilni o'rganayotganlar uchun ham so'zning chuqur ma'nosini tushunishni osonlashtiradi.

Masalan, *الدعاء والمسألة (ad-du'ā' wal-mas'ala)* ya'ni **"Duo va so'rash o'rtasidagi farq"** quyidagicha ta'riflanadi:

- **Duo (الدعاء)** — bu iltijo va Xudoga bo'ysunishni ifodalovchi so'zdir. Duo qilishda inson o'zining ojizligini tan oladi va Ollohdan yordam so'raydi.
- **So'rash (المسألة)** — bu so'rovning oddiy shakli bo'lib, unda itoat va bo'ysunish hamroh bo'ladi. So'rashda ijtimoiy mavqe ham ifodalanishi mumkin, masalan, mavqe'yi balanddan buyruq olish, mavqe'yi pastroqdan so'rash, tengingdan talab qilish.

Keyin Qur'ondan misol keltiriladi:

- *وَلَا يَسْأَلُكُمْ أَمْوَالَكُمْ* (Vala yas'alukum amwalakum) — "U sizlardan mol-mulklaringizni so'ramaydi" (Muhammad surasi, 38-oyat). Bu oyatda muloyimlik bilan murojaat bor va tinglovchini mehr bilan jalb qilishga urinish kuzatiladi.

Shuningdek, boshqa oyatdan ham misol keltiriladi:

- ﴿إِنْ تَقْرَضُوا اللَّهَ قَرْضًا حَسَنًا﴾ (In taqrid'u Allaha qardan hasana) — "Agar sizlar Allohga go'zal qarz bersangiz..."¹¹ (Tag'obun surasi, 17-oyat). Bu oyat, so'rov va duo orasidagi bog'liqlikni va uni qanday ifoda qilish kerakligini ko'rsatadi.

Ushbu yondashuv orqali so'zlarning nozik farqlarini tushunish osonlashadi va arab tilining boyligi aniq namoyon bo'ladi. So'zlarning Qur'on oyatlari bilan bog'lanishi ma'naviy jihatdan so'zning asl mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mavzular tasnifi

Ushbu lug'atda mavzular tasnifi 29 ta kichik tasnifga bo'lingan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Arabcha matn	Mavzu	Taqdim etilgan farqlar	Tarjima o'zbek tilida	Izohlar
الاسم والصفة، الصفة والنعت	Ism va sifat	Bu turdagi so'zlar o'rtasidagi farqlar	Ism va sifat, sifat va sifatlash o'rtasidagi farqlar	Tilshunoslik bo'yicha tahlil
الدلالة والشبهة الدلالة والعلامة	Dalolat va belgi	Dalolat, dalil va istidlol o'rtasidagi farqlar va kuzatish bilan bog'liq tafovutlar	Dalolat va dalil, istidlol va ko'rish-kuzatish o'rtasidagi tafovutlar	Fikr yuritish tahlillari
العلم والمعرفة. العلم واليقين العلم والشعور	Ilm va ma'rifat	Ilm turlarining farqlari, shu bilan bog'liq ravishda idrok va topish o'rtasidagi tafovutlar	Ilm va ishonch, bilim va hissiyot o'rtasidagi farqlar	Bilim tahlillari
الحياة والعيش الموت والقتل	Hayot va yashash, o'lim va o'ldirish	Hayot va o'sish, tiriklik va jon o'rtasidagi farqlar	Hayot, yashash, ruh va ularning o'lim bilan bog'liq tafovutlari	Biologik va ma'navi jihatlar
القديم والعتيق الموجود والكائن	Eski va qadimiy	Eski va qadimiy narsalar, qolgan va doimiy bo'lgan narsalar o'rtasidagi farqlar	Qadimgi va mavjud, doimiy va abadiy narsalar bilan bog'liq farqlar	Zamonaviy va tarixiy taqqoslash
الارادة والمحبة الشهوة واللذة	Istak va muhabbat	Istaklar turlari va ularga yaqin bo'lgan tushunchalar, hamda qarama-qarshi bo'lgan holatlar	Istak va muhabbat, shuningdek, ularga qarama-qarshi tushunchalar o'rtasidagi farqlar	Psixologik tahlillar
الواحد والأوحد، الواحد	Yagona va	Yagona, individual	Yagona va o'xshashi	Lingvistik va

¹⁰ سورة التغابن، ١٧

¹¹ Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". O'zbekiston musulmonlari idorasi. Toshkent. 2002y.

والوحيد. والفريد	noyob	tushunchalar va ular bilan bog'liq tafovutlar	yo'q tushunchalar, hamda umum va jamoa tushunchalari o'rtasidagi farqlar	ijtimoiy tahlillar
المثل والمثل العدل والعدل المساواة والمماثلة	Misol va tenglik	Misol va o'xshashlik, adolat va tenglik o'rtasidagi farqlar	Misol va o'xshashlik, shuningdek, qarama-qarshi va zid tushunchalar bilan bog'liq tafovutlar	Adolat va tenglikning tushunchalari
الجسم والشخص الجسد والبدن	Tan va shaxs	Tana va jism, shaxs va narsa o'rtasidagi farqlar	Tana va jism, shaxs va narsa o'rtasidagi tafovutlar	Biologik va lingvistik tahlillar
الجنس والنوع الجنس والوجه	Jins va tur	Asos, jins va tur o'rtasidagi farqlar	Jins va tur, asos va yuzaki tushunchalar bilan bog'liq farqlar	Biologik va ijtimoiy taqqoslash
الحظ والقسم الإعطاء والإنفاق	Omad va ulush	Bo'linish, omad va ulush, saxovat va hadya turlari o'rtasidagi farqlar	Omad va ulush, saxovat va hadya turlari bilan bog'liq tafovutlar	Ijtimoiy va iqtisodiy tahlillar
السيد والصمد. مالك وملك	Hukumdor va yetakchi	Obro', shon-sharaf, davlat va hokimiyat o'rtasidagi farqlar	Hukumdor va mulkdor, davlat va qudrat tushunchalari bilan bog'liq tafovutlar	Siyosiy va ijtimoiy jihatlar
الإحسان والنفع الفضل والإحسان	Ezgulik va foyda	In'om va ezgulik, rahmat va foyda o'rtasidagi farqlar	Ezgulik va in'om, rahmat va foyda tushunchalari bilan bog'liq tafovutlar	Axloqiy tahlillar
الحفظ والكلاءة، الحفيظ والرقيب	Himoya va qo'riqlash	Himoya va qo'riqlash, parvarish va kuzatuv o'rtasidagi farqlar	Himoya va kuzatuv o'rtasidagi tafovutlar	Xavfsizlik tushunchalari
الهداية والإرشاد الهدى والبيان الخير والصلاح	Hidoyat va yo'riqnoma	Hidoyat, to'g'ri yo'l va isloh o'rtasidagi farqlar	Hidoyat va yo'l ko'rsatish, isloh va halollik bilan bog'liq tafovutlar	Ma'naviy tahlillar
التكليف والإبتلاء التكليف والتحميل	Taklif va sinov	Taklif, sinov va tajriba o'rtasidagi farqlar	Taklif va yuklash, imtihon va tajriba bilan bog'liq farqlar	Ijtimoiy tahlil
لطاعة والخدمة والحقد الدين والشرعية	Dindorlik va xizmat	Din, millat, itoat va ibodat o'rtasidagi farqlar	Din, millat, itoat va ibodat bilan bog'liq tafovutlar	Diniy tahlil
الثواب والأجر العوض والبدل	Mukofot va o'rin	Mukofot va kompensatsiya o'rtasidagi farqlar	Mukofot, kompensatsiya va o'rnini qoplash bilan bog'liq tafovutlar	Ijtimoiy va iqtisodiy tahlillar
الكبر والكبرياء الاستكبار والاستتكاف	Mag'rurlik va kibr	Mag'rurlik va ulug'lash o'rtasidagi farqlar	Mag'rurlik va kibr, ulug'lanish va bo'ysunmaslik bilan bog'liq farqlar	Shaxsiy va ijtimoiy tahlillar

اللهو واللعب المزاح والهزل	O'yin va kulgi	Hazil va kulgi o'rtasidagi farqlar	O'yin, hazil va xushchaqchaliq o'rtasidagi tafovutlar	Shaxsiy xatti-harakatlar tahlili
العجب والأمر العجيب والطريف	Hayrat va g'aroyib voqea	Tadbir, sehr va illyuziya o'rtasidagi farqlar	Hayrat, g'aroyiblik va sehr, tadbir bilan bog'liq tafovutlar	Aqliy va hissiy jihatlar
الحسن والوضاءة الحسن والجمال	Husn va go'zallik	Husn va go'zallik, tozalik va joziba o'rtasidagi farqlar	Go'zallik va husn, tozalik va joziba bilan bog'liq tafovutlar	Estetik tushunchalar
البعث والإرسال البعث والإنفاذ	Yuborish va topshirish	Yuborish va topshirish, payg'ambar va rasul o'rtasidagi farqlar	Payg'ambar va rasul o'rtasidagi tafovutlar	Diniy tahlil
الدهر والمدة الزمان والوقت	Zamon va vaqt	Zamon, vaqt va muddat o'rtasidagi farqlar	Zamon va vaqt, muddat bilan bog'liq tafovutlar	Vaqt tushunchalari
الإنسي والإنسان العالم والناس	Insoniyat va odamlar	Odamlar, maxluqot, dunyo va insoniyat o'rtasidagi farqlar	Insoniyat va yaratilgan narsalar o'rtasidagi tafovutlar	Inson va jamiyat tahlili
الجهر والإظهار	Oshkor qilish va namoyish	Fosh qilish va oshkor qilish o'rtasidagi farqlar	Oshkor qilish va fosh qilish bilan bog	

Mazkur tartibdagi lug'at Ibn Sidah al-Andalusiy tomonidan tuzilgan **"al-Muḥassas"**¹² lug'ati bilan muayyan darajada mos kelishi mumkin. Shu bilan birga, Abu Mansur as-Sa'alabiyning **"Fiqh al-Lugha"**¹³ asari ham ushbu yo'nalishga oid mavzuli lug'atlar qatoriga kiradi. Ushbu lug'atlarda har bir leksik birlik o'zining semantik ma'nosi bilan aloqador bo'lib, mazmuni lingvistik nuqtayi nazardan izohlanadi. **"al-Furūq al-Lughawiyyah"** va **"al-Muḥassas"** lug'atlari o'rtasida semantik o'xshashlik mavjud bo'lib, har bir so'zning semantik tahlili ularning ma'nosiga bog'liq holda ko'rsatiladi va izohlanadi. Ushbu lug'atlar leksikografik tadqiqotlarda sinonimik birliklar va ularning pragmatik ishlatilishlaridagi farqlarni tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.

"الفروق اللغوية" "al-Furūq al-Lughawiyyah" asarining xususiyatlari:

Bu lug'atning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: Ma'no Qur'on oyatlari, hadislar, mutakallimlar va fiqh olimlarining so'zlari yoki she'rlar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Bu quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1.Qu'on oyatlarida

Arabcha matn	Qur'on oyati	So'z	O'zbekcha tarjima
--------------	--------------	------	-------------------

¹² ابن سيدة الأندلسي. "المخصص". (دار الكتب المصرية، مصر) 1968-1972
¹³ أبو منصور الثعالبي. "فقه اللغة". (دار الكتب المصرية، مصر). القاهرة. 1900

تَدْعُو مَنْ أَدْبَرَ وَتَوَلَّى	Qur'on, 74:23	Duo, chaqirish الدعاء	"Kim ortga qaytsa va yuz o'girsas, uni chaqiradi"
فَسَوْفَ يَأْتِيهِمْ أَنْبَاءُ مَا كَانُوا بِهِ يَسْتَهْزِءُونَ	Qur'on, 6:5	Xabar va yangilik النبأ	"Ularga tez orada masxara qilgan narsalari haqidagi <u>xabar</u> keladi"
نَحْنُ نَقُصُّ عَلَيْكَ أَحْسَنَ الْقَصَصِ	Qur'on, 12:3	Qissa va hikoya القصص	"Biz senga eng go'zal <u>hikoyani</u> bayon qilamiz" ¹⁴

2.Hadislarda

Arabcha matn	Hadisning manbasi	So'z	O'zbekcha tarjima
قال رسول الله: <u>ضموا</u> فَوَاشِيَكُمْ حَتَّى مَذْهَبَ فَحْمَةِ اللَّيْلِ (أَخْرَجَهُ جَابِرُ بْنُ عَبْدِ اللَّهِ الْأَنْصَارِيُّ وَكَانَتْ السَّلْسَلَةُ الصَّحِيحَةَ)	Jabir ibn Abdulloh al-Ansoriyning sahih zanjiri bilan rivoyati	الضم	Rasululloh dedi: "Tungi qorong'ulik tarqalguncha kiyimlaringizni yaqin tutinglar"
قال رسول الله: إِذَا أَتَاكُمْ كَرِيمٌ قَوْمٍ فَكْرِمُوهُ. (أَخْرَجَهُ ابْنُ مَاجَةَ مِنْ حَدِيثِ ابْنِ عُمَرَ وَسَنَدُهُ ضَعِيفٌ)	Ibn Majaning Ibn Umardan zaif isnod bilan rivoyati	الكرم	Rasululloh dedi: "Agar qavmingizdan sharaflı kishi kelsa, uni hurmat qilinglar"
قال رسول الله <u>جَبَلَتْ</u> الْقُلُوبَ عَلَى حُبِّ مَنْ أَحْسَنَ إِلَيْهَا. (أَخْرَجَهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي الشَّعْبِ عَنْ ابْنِ مَسْعُودٍ مَرْفُوعًا، وَمَوْقُوفًا)	Bayhaqiy Ibn Mas'uddan rivoyat qilgan	الجلبة	Rasululloh dedi: "Qalblar ularga yaxshilik qilgan kishini sevishga yaratilgan"

3.Faqihlar yoki mutakallimlarning so'zlarida

Arabcha matn	Faqihlar yoki mutakallimlar so'zi	So'z	O'zbekcha tarjima
قال ابن دريد الأبدال جمع بديل، مثل أشراف وشريف، وقد يكون البديل الخلف من الشيء	Ibn Duraydning so'zi	البديل	Ibn Durayd dedi: "Abdal (o'rinbosarlar) so'zi "badal" (o'rinbosar)ning jamidir, masalan, sharif va ashrof kabi. Badal bir narsaning o'rnini bosuvchi bo'lishi mumkin"
قال علي بن عيسى الرهبة خوف يقع على شريطة لا مخافة والشاهد أن نقيضها الرغبة	Ali ibn Iso aytgan	الرهبة	Ali ibn Iso dedi: "Rahba — shartli bo'lgan qo'rqishdir, umumiy qo'rquv emas. Bu yerda uning qarama-qarshisi 'rag'ba'dir"
قال المتكلمون العقل الكمال علوم ضروريات يميز بها القبيح من الحسن يريدون اجماع علوم	Mutakallimlar so'zi	الكمال	Mutakallimlar dedi: "Aql — bu mukammallik bo'lib, zarur bilimlar to'plami orqali yaxshi va yomonni ajratadi. Ular bilimlarning umumiyligini nazarda tutadilar"

She'riy matnlarda

Arabcha she'r matni	So'z	She'riy o'zbekcha tarjima
تَصِيحُ الرَّدِّيَّاتِ فِينَا وَفِيهِمْ * صِيَا حَبَاتِ الْمَاءِ أَصْبَحْنَ جَوْعًا	Qichqiriq الصباح	"Rudayniyat qizlari hayqiradi ichimizda, * Suv qizlariday ochlikda, azobda qichqiradi har yerda" ¹⁵ .

¹⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". O'zbekiston musulmonlari idorasi. Toshkent. 2002y.

¹⁵ She'riy tarjimalar maqola muallifiga tegishli.

تُعَلِّ وهي ساعبةً بَنِيها * بأنفاس من الشيم القراح	Nafas النفس	"Och qolgan bolalarini ovuntirar, * Sof axloq nafaslari bilan u ovutar."
وَذَى ضَعْن كَفَفْت الضَعْنُ عنه * وَكُنْتُ على إِسْأَتِهِ مَقِيَّتاً	Himoya المقِيَّت	"Yuruvchini himoya qilganman, asrab * Yomonliklariga qaramay, doimo parvarishlab."

So'zlarni sharhlash va ularni joylashtirishda muallif tushuntirish usulidan foydalanadi, bu esa ta'riflar, so'zlar yoki qarama-qarshi ma'nolar orqali amalga oshiriladi.

Ta'riflar bilan tushuntirish

Arabcha matn	So'z	O'zbekcha tarjima
يُفِيد جمع السور، وضم بعضها إلى بعض	القرآن	Suralarni to'plash, ularni bir-biriga qo'shishni bildiradi.
يُفِيد أنه يفرق بين الحق والباطل، والمؤمن والكافر	الفرقان	Haq va botil, mo'min va kofir o'rtasida farq qilinishini bildiradi.
يشتمل على الأشياء، وقولنا: الأشياء عام	العام	Narsalarni o'z ichiga oladi, "narsalar" umumiy atama sifatida ishlatiladi.

1. Tushuntirish qarama-qarshilik orqali (Tushuntirishda antonimlar)

Qarama-qarshi ma'nolar	Mavzu	O'zbekcha tarjima
العيش	الموت	Yashash-O'lim
البقاء	الفناء	Qolish-Ketish
الفقير	القادر	Faqir-boy

2. Tushuntirish sinonimlar orqali (Tushuntirishda sinonimlar)

Sinonimlar	Mavzu	O'zbekcha tarjima
النفطاة	الطهارة	Tozalik-Poklik
الوقت	الزمان	Vaqt-zamon
السنة	العام	Yil-Yil

3. Lug'atda sarfiy-morfologik atamalar ishlatilishi

Aniq daraja sifatdosh (Ism faol)

Faol ishtirokchi	Mavzu	O'zbekcha tarjima
فاعل خطر	خاطر	Xatar qiluvchi
فاعل علم	عالم	Biluvchi
فاعل شهد	شاهد	Guvoh bo'lgan

Majhul daraja sifatdosh (Ism maf'ul)

Majhul ishtirokchi	Mavzu	O'zbekcha tarjima
مفعول عرف	معروف	Taniqli

Majhul ishtirokchi	Mavzu	O'zbekcha tarjima
مفعول شہر	مشہور	Mashhur bo'lgan
مفعول وجد	موجود	Mavjud bo'lgan

4. Masdar (Fe'lining asliy shakli)

Masdar	Mavzu	O'zbekcha tarjima
مصدر من نظم	تنظيم	Tashkil qilish
مصدر من فرق	تفریق	Ajratish
مصدر من رتب	ترتيب	Tashkil etish

Afzalliklar va kamchiliklar

Ushbu lug'atning ayrim **afzalliklaridan** biri shundaki, tadqiqotchilar uchun kerakli leksik birliklarni yoki atamalarni izlash juda oson. Buning asosiy sababi, lug'atning **tematik tartibda** tuzilganidir, ya'ni so'zlar ularning birinchi ko'rinish joyiga yoki kontekstiga asoslanib izlanadi. Masalan, "**rasul**" va "**nabiy**" tushunchalari o'rtasidagi farqlar 24-bobda ko'rsatilgan bo'lib, bunda "yuborish" va "ijro etish" hamda payg'ambar va rasul o'rtasidagi semantik tafovutlar tushuntiriladi. Shuningdek, "**ilm**" va "**ma'rifat**" mavzusi 4-bobda keltirilgan bo'lib, unda turli bilim turlarining (أنواع العلم) o'zaro farqlari haqida ma'lumot berilgan.

Shunday qilib, bu lug'at **semantik tartibga** asoslangan leksikografik manbalar qatoriga kiradi, chunki u til materiallarini ma'nolariga ko'ra tasniflaydi va shu mavzuga oid barcha leksik birliklarni bir bo'limda jamlaydi. Ushbu uslub arab so'zlarini izlashni tadqiqotchilar va o'quvchilar uchun yanada osonlashtiradi. Boshqa tomondan, har bir leksik birlikning ma'nosi grammatik jihatdan aniq **sintaktik tuzilmalar** orqali beriladi, bu orqali tadqiqotchi ushbu so'zlarning barcha grammatik shakllari va morfologik o'zgarishlari bilan tanishadi. Shundan so'ng, Qur'on oyatlaridan dalillar, olimlarning so'zlari va she'rlardan (شعر) misollar keltiriladi, bu esa ma'noni yanada tushunarli qiladi. Har bir so'zning tarjimasida lug'at so'zlar ma'nosini oson tushunishga imkon beradi.

Ammo ushbu lug'atning **kamchiliklari** orasida birinchisi – lug'atning mazmuni ayrim joylarda aniq tafsilotlar bilan keltirilmagan, chunki ba'zi holatlarda ma'lumotlar umumiy ko'rinishda berilgan. Ikkinchisi esa, muallif ba'zan ma'nolarni ortiqcha tafsilotlar bilan uzoq bayon qilgan, bu esa ayrim leksik birliklarni izlashda vaqt talab qiladi. Misol uchun, "علم" va "معرفة" tushunchalari o'rtasidagi tafovutlar turli xil kontekstlarda izohlangan bo'lsa ham, ma'lum joylarda izohlar cho'zilib ketgan.

Xulosa

Abu Hilol al-Askariyning "*al-Furūq al-Lughawiyah*" asari arab tilidagi sinonimik birliklar o'rtasidagi nozik semantik farqlarni tahlil qilishga bag'ishlangan klassik ilmiy manba hisoblanadi. Asarda so'zlar va iboralar ma'nosidagi nozik tafovutlar aniqlanib, ular fonetik, morfologik, sintaktik va pragmatik jihatlardan o'rganiladi. Bu lug'at arab tilini chuqur o'rganayotgan tadqiqotchilar va tarjimonlar uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Lugʻatning asosiy afzalligi shundaki, soʻzlar tematik tartibda joylashtirilgan boʻlib, har bir boʻlim oʻziga xos semantik guruhga oid boʻlgan soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Bu tadqiqotchilar uchun kerakli maʼlumotlarni topishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, har bir soʻzning maʼnosi Qurʼon oyatlari, hadislar, klassik sheʼriyat va olimlarning soʻzlari bilan izohlab, mustahkamlanadi.

Asarning metodologik jihatdan aniq, semantik maydonni chuqur tahlil qilishi uning yuksak ilmiy darajada ekanligini koʻrsatadi. Biroq, ayrim joylarda izohlarning choʻzilib ketishi va umumiylikning ustun kelishi mazmunni qisman murakkablashtirishi mumkin. Shu bois, tadqiqotchilardan ushbu asar bilan ishlaganda alohida diqqat-eʼtibor talab qilinadi.

Ushbu lugʻat arab tilidagi sinonimik farqlarni oʻrganishda, leksik-semantik va struktur tadqiqotlar olib borishda juda foydali ilmiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. عدنان الخطيب، . المعجم العربي بين الماضي والحاضر الطبعة الثانية. (لبنان مكتبة لبنان. 1414هـ. 1994م.
2. عبد الحميد أبو سكين . المعاجم العربية مدارسها ومناهجها. الطبعة الأولى (جامعة الأزهر. 1993)
- 3 إبراهيم بن مراد . المعجم العلمي العربي المختص. الطبعة الأولى (بيروت - لبنان: دار الغرب الإسلامي 1994).
4. عبد الله محمد النقرات، الشامل في اللغة العربية.
5. أبو هلال العسكري. الفروق اللغوية (القاهرة دار العلم و الثقافة)
6. أبو هلال العسكري. لمرجع السابق
7. "راغب الإصفهاني" مفردات ألفاظ القرآن (دار النشر القاهرة 1938)
8. سورة محمد، ٣٨.
9. سورة التغابن، ١٧ "
10. ابن سيدة الأندلسي. "المخصص". (دار الكتب المصرية، مصر) 1968-1972
11. أبو منصور الثعالبي. "فقه اللغة". (دار الكتب المصرية. مصر،). القاهرة. 1900
12. Shayx Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". O'zbekiston musulmonlari idorasi. Toshkent. 2002y.

